

**“AKBARNOMA” – MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIGA OID
MUHIM BIRLAMCHI MANBA SIFATIDA**

Shermamatova Gulchehra Avazbek qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

*O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti, Tarixshunoslik, manbashunoslik, tarixiy
tatqiqot usullari yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: t.f.n.,dots. S.A.Zaxidova

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:10.05.2026

Revised: 11.05.2026

Accepted:12.05.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*“Akbarнома”,
Abulfazl Allomiy,
“Allomiy”, Markaziy
Osiyo tarixi, “Din-i
ilohiy”, diplomatik
aloqalar, “Turoniylar”
guruhi, Abdullaxon II,
XVI asr, Bo‘riboy
Ahmedov,
Movorounnahr, “Oyin-i
Akbari”, Hindiston.*

*Mazkur maqolada XVI asr buyuk tarixchisi
Abulfazl Allomiyning “Akbarнома” asari Markaziy
Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi
siyosiy, diplomatik, madaniy va ijtimoiy aloqalarni
yorituvchi fundamental manba sifatida tahlil
qilinadi. Jumladan, asarda keltirilgan Temuriylar
sulolasining shajarasi, Zahriddin Muhammad Bobur
va Humoyun Mirzo davri voqealari, ayniqsa
Jaloliddin Muhammad Akbar hukmronligi va
diplomatik aloqalari, bundan tashqari
Movorounnahr va Xurosonning o‘sha davrdagi
siyosiy muhiti haqida qisqacha ma‘lumotlar beriladi.*

Abulfazl Allomiy(1551-1602) va uning shoh asari “Akbarнома” haqida gap ketganda, biz nafaqat tarixchi balki, o‘z davrining eng yirik mutafakkiri va strategik maslahatchisi haqida so‘z yuritgan bo‘lamiz. Abulfazl Allomiy Boburiylar saltanatining eng qudratli hukmdori

Jaloliddin Muhammad Akbarning eng yaqin do'sti, vaziri va "sodiq sirdoshi" bo'lgan. U "Allomiy" (o'ta bilimdon) unvoniga sazovor bo'lgan. Arab, fors tillarini mukammal bilgan, falsafa, tarix va adabiyot sohasida peshvo hisoblangan. Akbarshoh tomonidan joriy etilgan "Din-i ilohiy" (umuminsoniy tinchlik va diniy bag'rikenglik) g'oyasining asosiy mafkurachisi bo'lgan. Afsuski, uning nufuzi va Akbarshohga ta'siridan cho'chigan shahzoda Salim (bo'lajak Jahongirshoh) tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida o'ldirilgan.¹¹

Bu asar shunchaki bir podshohning hayoti emas balki, XVI asrning ulkan ensiklopediyasidir. Asar fors tilida yozilgan va 3ta katta jilddan iborat:

1-jild: bu qismda insoniyat yaratilishidan boshlab, O'rta Osiyo tarixining muhim bo'lagi bo'lgan Amir Temur va uning avlodlari, xususan, Zahriddin Muhammad Bobur hamda Humoyun Mirzo hukmronligi yoritilgan.

2-jild: bu jild bevosita Akbarshohning 46 yillik hukmronligini o'z ichiga oladi. Unda harbiy yurishlar, davlat boshqaruvi va Markaziy Osiyo xonliklari bilan bo'lgan diplomatik yozishmalar batafsil keltirilgan.

3-jild: bu qism asarning eng qimmatli bo'lagi hisoblanadi. Unda: davlatning ma'muriy va harbiy tuzilishi, soliq tizimi va iqtisodiyoti, Hindistonning o'sha paytdagi faunasi, aholisining urf-odatlarini va falsafiy qarashlari aks etgan.

"Akbarnoma" asari Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda xorijiy emas, balki bevosita ichki manba kabi qimmatga ega. Chunki Boburiylar o'zlarini hamisha "Temuriy" deb hisoblaganlar va ularning ko'zi hamisha ota yurti – Movorounnahrda bo'lgan. Abulfazl Allomiy asarning kirish qismida Akbarshohning shajarasini Amir Temurga borib taqashi orqali Boburiylarning qonuniy hokimiyat vorislari ekanligini isbotlashga harakat qiladi.¹² Temuriylar o'rtasidagi taxt kurashlari, Samarqand va Buxoro uchun janglar, Boburning Andijondan chiqib, Hindistonda saltanat qurilishigacha bo'lgan jarayonlar bayon etiladi. Shuningdek asarda Markaziy Osiyo shaharlari (Samarqand, Hirot, Kesh) "muqaddas vatan" va ilm-fan markazlari sifatida ulug'lanadi. Bundan tashqari yana bu asarda XVI asrning ikkinchi yarmidagi Markaziy Osiyoning siyosiy manzarasi, ayniqsa, Shayboniylar bilan munosabatlar markaziy o'rin tutadi. Xususan, Abdullaxon II bilan bo'lgan muloqotda: Akbarshoh va Abdullaxon II o'rtasidagi o'nlab elchilik almashinuvlari va maktublar matni keltirilgan. Bu maktublar orqali ikki davlatning chegaralarini belgilash (ayniqsa, Badaxshon va Balx masalasida) va tashqi xavfga qarshi ittifoq tuzish urinishlarini bilib olish mumkin. Badaxshon va Balx masalasi: bu

¹¹ Abulfazl Allomiy "Akbarnoma" (Saylanma). Fors tilidan tarjimonlar: V. Rahmonov, A. Ahmedov. - Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017. - 146 b.

¹² Abulfazl Allomiy "Oyin-i Akbari". (V. Rahmonov tarjimasi va sharhlari). - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2016. - 280 b.

hududlar o'sha davrda Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi "bufer zona" bo'lgan. Abulfazl ushbu hududlardagi isyonlar, ularning Movorounnahr hukmdorlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi haqida batafsil ma'lumot beradi.

Bundan tashqari yana asarda Markaziy Osiyodan Hindistonga ko'chib o'tgan nufuzli shaxslar "Turoniylar" guruhi haqida so'z boradi. Akbarshoh saroyidagi eng nufuzli sarkardalar va vazirlarning aksariyati buxorolik, samarqandlik yoki andijonlik bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Shuningdek "Turoniylar" guruhi a'zolaridan: Bayramxon (garchi kelib chiqishi bahsli bo'lsada, turkiy madaniyat vakili sifatida Akbarning yoshligida davlatni boshqargan va saqlab qolgan shaxs), Mun'imxon (Akbarshohning eng ishonchli sarkardalaridan biri, Turoniy amirlarining yetakchisi bo'lgan) kabilar va bir qanchasi haqida ma'lumotlar beriladi. "Turoniy amirlar" Hindistonda yashasalarda, o'z vatani bilan aloqani uzmagani. Bu haqida esa Abdullaxon II elchilari Hindistonga kelganda, ularni aynan Turoniy amirlar kutib olishgan va muzokalarda tarjimon hamda maslahatchi bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari ular o'z farzandlarini asosan o'z doirasida yoki Markaziy Osiyodan yangi kelgan aslzoda oilalar vakillari bilan nikohlaganlar, bu esa ularning "Turoniylik" qiyofasini saqlab qolishga yordam bergan. Abulfazl o'z asarida Turoniylarning ijobiy tomonlari bilan birga, ularning isyonkorligini ham yashirmagan. Xususan, Turoniy amirlar, "erkinlikni xush ko'ruvchi" va podshohni o'ziga teng ko'radigan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ularning ba'zilar hattoki, Akbarshohning markazlashgan hokimiyatiga qarshi chiqqanligi haqida ham ma'lumotlar bor. Abulfazl Turoniylar va Eroniylar o'rtasidagi doimiy raqobatni ham yoritadi. Bu ikki guruh o'rtasidagi muvozanatni saqlash Akbarshoh siyosatining eng qiyin qismi bo'lgan.¹³

Bundan tashqari yana asarni tarjimasini va ilmiy salohiyatini keng tasvirlab bergan o'zbek manbashunoslik maktabining asoschisi Bo'riboy Ahmedovning bergan ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, olim o'zining mashhur "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" asarida "Akbarнома"ga alohida bob ajratgan. U asarni shunchaki tarixiy kitob emas, balki XVI asrning eng mukammal va ishonchli ensiklopediyasi deb baholagan.¹⁴ Olim "Akbarнома"ning Markaziy Osiyo tarixiga daxldor bo'lgan 1-2 jildlarini hamda iqtisodiy-ma'muriy ma'lumotlarga boy "Oyin-i Akbari" qismini ilmiy jihatdan klassifikatsiya qilgan. Bo'riboy Ahmedov Abulfazl asari yordamida Abdullaxon II ning tashqi siyosati, uning

¹³ Sultonov.X "Boburiylar saltanati"(Tarixiy-ma'rifiy o'yalar),-Toshkent:"Sharq",2003.-224 b

¹⁴ Ahmedov.B."O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari"(Qadimgi zamon va o'rta asrlar).-Toshkent:"O'qituvchi",1991.-288 b.

Hindiston bilan savdo va elchilik aloqalari qanchalik keng bo'lganini isbotlab bergan. Olim "Akbarнома"dagi ma'lumotlarni Hafiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asari bilan qiyoslagan. Bu esa o'sha davr tarixini bir tomonlama emas, balki ikki davlat manbalari asosida xolis o'rganishga yo'l ochgan. Bundan tashqari asar orqali Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdo aylanmasida qaysi shaharlar (Buxoro, Samarqand, Termiz) asosiy rol o'ynaganini "Akbarнома"dagi narx-navo va boj ma'lumotlari orqali ko'rsatgan. Bo'riboy Ahmedovning asar haqidagi: "Akbarнома" bu shunchaki Hindiston tarixi emas, balki bizning tariximizning Hindistondagi davomidir. Usiz XVI asr Movorounnahr tarixini to'laqonli tasavvur qilib bo'lmaydi" degan xulosalaridan ham bu asar Markaziy Osiyo tarixi uchun ahamiyatli ekanligini bilib olishimiz mumkin.¹⁵

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Abulfazl Allomiyning "Akbarнома" asari nafaqat Hindiston o'rta asrlar tarixi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi o'tmishini yorituvchi beqiyos birlamchi manbadir. "Akbarнома" XVI asrda Movorounnahr va Hindiston o'rtasidagi siyosiy, diplomatik va iqtisodiy aloqalarning naqadar uzviy bo'lganini isbotlaydi. Ayniqsa, Boburiylar va Shayboniylar o'rtasidagi elchilik munosabatlari va maktublar almashinuvi o'sha davr xalqaro siyosatining o'ziga xos manzarasini chizib beradi. Asarda tilga olingan "Turoniylar" guruhi va ularning saltanat boshqaruvidagi o'rni Markaziy Osiyo xalqlarining Hindiston davlatchiligi va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi tarixini mintaqaviy miqyosda o'rganishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu manbani chuqur tatqiq etish bugungi kunda O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy diplomatik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulfazl Allomiy. Akbarнома (Saylanma). Fors tilidan tarjimonlar: .V. Rahmonov, A. Ahmedov: - Toshkent: Sharq, 2017, -146 b.
2. Abulfazl Allomiy. Oyin-i Akbari. (V. Rahmonov tarjimasini va sharhlari). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016, -280 b.
3. Ahmedov. B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o'rta asrlar) . - Toshkent: O'qituvchi, 1991. -288 b.

¹⁵ Ahmedov. B. "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" (Qadimgi zamon va o'rta asrlar). - Toshkent: "O'qituvchi", 1991.

4. Rahmonov.V. O‘zbekiston adabiyotida tarixiy shaxs talqini./(Abulfazl Allomiy asarlari misolida).Monografiya. - Toshkent: Fan,2005.-192 b.

5. Sultonov.X. Boburiylar saltanati./(Tarixiy-ma’rifiy o‘ylar), - Toshkent: Sharq,2003.-224 b

